Scientific Electronic Journal "Foreign Languages in Uzbekistan",
2025, vol. 11, No 4 (63), pp.198-217
https://journal.fledu.uz
ISSN: 2181-8215 (online)

LOSS AND GRIEF AS EXPRESSED THROUGH FLOWERS IN ENGLISH LITERATURE (BASED ON SHAKESPEARE'S WORKS)

Feruza Turdimurod qizi KHAZRATKULOVA
2nd year doctoral student
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

INGLIZ ADABIYOTIDA GULLAR ORQALI IFODALANGAN YO'QOTISH VA QAYG'U (SHEKSPIR ASARLARI MOTIVLARI ASOSIDA)

Feruza Turdimurod qizi XAZRATQULOVA
2-kurs tayanch doktorant
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

УТРАТА И ГОРЕ, ВЫРАЖЕННЫЕ ЧЕРЕЗ ЦВЕТЫ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (ПО МОТИВАМ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ШЕКСПИРА)

Феруза Турдимурод кизи ХАЗРАТКУЛОВА
Докторант 2 курса
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улуғбека
feruza_khazratkulovaa@mail.ru ORCID: 0009-0002-1250-9712

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):
Xazratqulova F.T. Shekspir asarlarida gul detali orqali ifodalangan yo'qotish va qayg'u motivlarining badiiy talqini.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 4. — B. 198-217.

https://doi.org/10.36078/1758102157

Received: May 02, 2025
Accepted: August 17, 2025
Published: August 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

Open Access

Abstract. This article undertakes a comprehensive linguistic and poetic analysis of the symbolic and cultural–functional significance of floral and botanical imagery in the artistic representation of death and loss within English literature. The focus of the research is William Shakespeare's renowned tragedies–*Hamlet*, *Othello*, and *Romeo and Juliet*–in which flowers and plants acquire a profound symbolic role, serving as a poetic medium to reveal psychological anguish, grief, memory, and the transient nature of human life. By employing comparative and analytical methods, the study systematically examines the poetic function of floral symbols, their cultural and intertextual foundations, and their aesthetic value in dramatic composition. Particular attention is given to Ophelia's descent into madness and her symbolic distribution of imaginary flowers in *Hamlet*, Desdemona's mournful "Willow Song" in *Othello*, and the interlacing of nuptial and funerary imagery in *Romeo and Juliet*, where floral motifs underscore themes of tragedy and destiny. The article demonstrates that Shakespeare's use of nature-related symbols extends beyond decorative imagery, functioning as a linguistic and cultural code through which psychological depth and philosophical reflections on life and death are expressed. The findings contribute to a deeper understanding of Shakespearean poetics, emphasizing the interplay between symbolic language, cultural tradition, and narrative structure. Furthermore, this research lays a theoretical foundation for subsequent scholarly inquiries into the role of symbolic imagery in English literature, providing a methodological framework for comparative studies of floral motifs in various cultural contexts. Thus, the article represents both a detailed textual interpretation and a broader contribution to literary semiotics and cultural linguistics.

Keywords: Shakespearean poetics; floral and botanical

symbolism; tragic dramaturgy; linguopoetic analysis; semiotics and symbol systems; Elizabethan cultural context; ethnobotany; contextual interpretation; comparative analysis methodology; themes of death and mourning.

Annotatsiya. Maqolada ingliz adabiyotida o‘lim va yo‘qotish motivlarining badiiy ifodasida gul va o‘simlik obrazlarining semantik va madaniy-funksional o‘rni lingvopoetik jihatdan tadqiq etildi. U. Shekspirning “Hamlet”, “Otello” va “Romeo va Julietta” kabi mashhur tragediyalaridagi ramziy obrazlar tahlil qilinib, gullar va o‘simliklar orqali qahramonlarning ruhiy iztiroblari, motam va xotira kayfiyatlari, hayotning o‘tkinchiligi hamda insoniy tuyg‘ularning murakkab psixologik qatlamlari ochib berildi. Solishtirma-tahliliy metod asosida ushbu asarlarda uchraydigan gul ramzlari poetik funksiyasi, ularning madaniy-kontekstual ildizlari va estetik qiymati o‘rganildi. Xususan, “Hamlet”dagi Ofeliya timsolining ruhiy tanazzuli jarayonida tarqatilgan xayoliy gullar, “Otello”dagi Dezdemona kuylagan “Tol qo‘shig‘i”, shuningdek, “Romeo va Julietta” tragediyasida to‘y va motam sahnalarining gul obrazlari bilan uyg‘unlashuvi batafsil yoritildi. Maqola Shekspir ijodidagi tabiat obrazlarining ma’nodoshlik tizimi va ularning dramatik voqealar bilan semantik uyg‘unligini ilmiy asosda ochib berdi. Tadqiqot natijalari Shekspir poetikasida gul va o‘simlik ramzlarining badiiy-falsafiy ahamiyatini kengroq anglash, ularni lingvokulturologik kontekstda tahlil qilish, shuningdek, ingliz adabiyotida ramziy obrazlarning estetik va madaniy funksiyalarini o‘rganishga hamda keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.
Kalit so‘zlar: Shekspir poetikasi; gul va o‘simlik ramzlari; tragediya dramaturgiyasi; lingvopoetik tahlil; semiotika va ramzlar tizimi; Elizabethan davri madaniyati; etnobotanika; kontekstual yondashuv; qiyosiy tahlil metodologiyasi; o‘lim va qayg‘u motivlari.

Аннотация. Данная статья посвящена комплексному лингвопоэтическому анализу символического и культурно-функционального значения флористических образов в художественном выражении тем смерти и утраты в английской литературе. В центре исследования находятся знаменитые трагедии Уильяма Шекспира — Гамлет, Отелло и Ромео и Джульетта, где цветы и растения приобретают глубокий семантический потенциал, выступая средством раскрытия психологических переживаний, скорби, памяти и идеи бренности человеческой жизни. С использованием сравнительно-аналитического метода в статье системно рассматриваются поэтические функции флористических символов, их культурные и интертекстуальные корни, а также эстетическая ценность в структуре драматического произведения. Особое внимание уделено образу Офелии, ее безумию и символическому раздариванию воображаемых цветов в Гамлете, трагическому звучанию “Песни ивы” Дездемоны в Отелло, а также сочетанию свадебных и погребальных мотивов в Ромео и Джульетте, где цветочные образы подчеркивают темы судьбы и трагедии. Исследование демонстрирует, что использование природных символов у Шекспира выходит за рамки декоративности и функционирует как культурный и лингвистический код, через который выражаются философские размышления о жизни и смерти. Полученные результаты углубляют понимание поэтики

Шекспира, акцентируя взаимодействие символического языка, культурных традиций и повествовательной композиции. Работа служит теоретической основой для дальнейших научных исследований символики в английской литературе и предлагает методологический инструментарий для сравнительного анализа флористических мотивов в различных культурных контекстах. Таким образом, статья представляет собой как детальный текстуальный разбор, так и вклад в развитие литературной семиотики и культурной лингвистики.

Ключевые слова: поэтика Шекспира; ботаническая символика; драматургия трагедий; лингвопоэтический анализ; семиотика и система символов; культурный контекст елизаветинской эпохи; этноботаника; контекстуальный подход; метод сравнительного анализа; мотивы смерти и скорби.

Kirish

Ingliz adabiyotida tabiat va o‘simlik motivlari asrlar davomida muhim semantik yukni o‘zida mujassam etib kelgan, ular insoniyatning falsafiy, estetik va madaniy qarashlarini badiiy matnda ifodalashda markaziy ramzlardan biri sifatida qaraladi [Shakespeare Birthplace Trust 2023; Mullan 2018]. Xususan, gullar obraziga turli davrlarda chuqur ramziy ma’no yuklatilib, ular orqali hayot va o‘lim, sevgi va yo‘qotish, beg‘uborlik va halokat kabi tushunchalar poetik jihatdan yoritilgan [Greenblatt 2010]. Adabiyotshunoslikda “gul tili” fenomeni asosan Viktoriya davri bilan bog‘lanadi [Seaton, 2012], biroq ramzlarning ko‘p qatlamli ma’nosi Uyg‘onish davri badiiy merosida ham muhim o‘rin egallaydi, ayniqsa Uilyam Shekspir ijodida ular dramaturgiyaning ajralmas qismi sifatida talqin etiladi [Shakespeare.org.uk 2023].

Shekspir asarlarida taxminan 180 dan ortiq turli o‘simlik va gul nomlari uchraydi, bu esa yozuvchining tabiat obrazlarini semantik va psixologik vosita sifatida keng qo‘llaganidan dalolat beradi [Garber 2004]. Tragediyalarda gullar ikki qutbli ramzga ega: ular, bir tomondan, go‘zallik va poklikni bildirsa, boshqa tomondan o‘tkinchilik va nobudlikni anglatadi [Blake 2011]. Masalan, qadimiy yunon mifologiyasidagi Prozerpina (Persefona) haqidagi afsonada gul yig‘ayotgan paytda uning yer osti dunyosiga olib ketilishi gullarni hayot va o‘lim chegarasining timsoli sifatida talqin qilishga asos bo‘lgan [Hamilton 1998].

Shu jihatdan Shekspirning “Hamlet” tragediyasida Ofeliyaning ruhiy tushkunligi jarayonida tarqatgan ramziy gullar, qahramonlar o‘limidan so‘ng qo‘yilgan gul detallarining poetik kuchi [Thompson & Taylor 2006], “Otello”dagi Dezdemona kuylagan “Willow Song” (“Tol qo‘shig‘i”) orqali kelajakdagi fojia sezdirilishi va “Romeo va Julietta”da sevgi va o‘limning bir-biriga qorishganligi gul va dorivor o‘tlar obrazida aks etishi [Shapiro 2005] dramaturgiya poetikasidagi ramziy qatlamni kuchaytiradi.

Maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, u Shekspir poetikasida gul va o‘simlik ramzlarining lingvopoetik rolini tizimli tahlil qiladi, shu orqali dramaturgik matnning semantik tuzilmasi va madaniy-kontekstual mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi [Bloom 1999]. Ushbu tadqiqot nafaqat Shekspir asarlarida tabiat obrazlarini o‘rganishga, balki ingliz adabiyotidagi ramzlar tizimining lingvokulturologik talqinini

rivojlantirishga xizmat qiluvchi nazariy asos sifatida ham ahamiyatlidir. Shuningdek, maqoladagi kuzatishlar boshqa davr va madaniyatlarda o‘xshash semantik ramzlarning qiyosiy tadqiqi uchun metodologik zamin yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Uilyam Shekspirning badiiy merosi, xususan, uning tragediyalaridagi gul va o‘simlik obrazlari, adabiyotshunoslik tarixida ko‘p asrlardan beri chuqur ilmiy tadqiqotlarning markazida turadi. Shekspir dramaturgiyasida tabiat tasviri oddiy dekorativ element emas, balki voqealar rivoji, qahramonlarning ruhiy holati va xarakteri, dramatik ziddiyatlarning kuchayishi hamda falsafiy konsepsiyalarning ochib berilishida asosiy semantik vosita sifatida namoyon bo‘ladi [Spurgeon 1935; Garber 2004; Bloom 1999]. Shekspir asarlarida gul va o‘simlik obrazlari lingvistik strukturaning chuqur qatlamlarini tashkil etib, matnning poetik va semantik tizimida uzviy rol o‘ynaydi. Bu jihatdan, Shekspir poetikasini o‘rganish jarayonida tabiat obrazlari, ayniqsa gul va o‘simliklarning ramziy funksiyasi filologiya, madaniyatshunoslik, semiotika va lingvopoetika kabi turli ilmiy yo‘nalishlarning diqqat markazida bo‘lgan [Ellacombe 1878; Thompson & Taylor 2006].

Shekspir davri — Elizabetan davri Angliyasida — tabiat obrazlari keng tarqalgan emblematik madaniyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Emblematik kitoblar, gerb va ramzlar to‘plamlari, xalq orasidagi botanika haqidagi tushunchalar o‘quvchilar va tomoshabinlar uchun matndagi o‘simlik va gul obrazlarini darhol tushunishga yordam bergan [Seaton 2012; Shakespeare Birthplace Trust 2023]. Shekspir matnida uchraydigan har bir o‘simlik turi o‘ziga xos semantik yukka ega bo‘lib, ramziy darajada axloqiy tushunchalar, falsafiy qarashlar va madaniy qadriyatlarni ifodalagan [Hamilton 1998]. Shu sababli Shekspir asarlarini lingvopoetik tahlil qilish jarayonida gul va o‘simlik obrazlari faqat badiiy estetikani emas, balki davrning ijtimoiy-madaniy kontekstini ham o‘zida mujassam etgan “madaniy kod” sifatida qaraladi [Lotman 1990; Eco 1976].

Ko‘plab tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, Shekspirning obrazlar tizimi, ayniqsa tabiatga oid metafora va ramzlar, dramaturgiyaning semantik va kompozitsion asosini tashkil etadi [Spurgeon 1935; Garber 2004; Greenblatt 2010]. Masalan, “Hamlet”dagi “chirigan bog‘” metaforasi Daniya qirolligidagi axloqiy tanazzulni aks ettiradi, Otellodagi “inson tanasi bog‘” konsepti esa inson irodasi va axloqiy qarorlarini falsafiy nuqtayi nazardan ko‘rsatadi [Dowden 1875; Shapiro 2005]. Shu tarzda, Shekspir matnida tabiat obrazlari ijtimoiy va falsafiy g‘oyalarni ifodalashda semantik markazga aylanadi.

Bugungi kunda Shekspir asarlaridagi o‘simlik obrazlari lingvopoetika, ekokritika va madaniy lingvistika doirasida ham qayta tadqiq qilinmoqda [Egan 2006]. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar bu obrazlarni intertekstual belgilarning murakkab tarmog‘i sifatida talqin qilib, ularni mifologik, bibliyaviy va folklor manbalari bilan bog‘laydi [Bakhtin 1981; Fowler 1986; Bath 1994]. Shu bois, Shekspir asarlaridagi gul va o‘simlik ramzlari lingvistik va madaniy semantika o‘rtasidagi uzviy aloqani ochib beruvchi asosiy element sifatida qaralishi mumkin.

Hamlet tragediyasidagi Ofeliya obrazi Shekspir dramaturgiyasida eng ko‘p tadqiq etilgan va ko‘p qavatli semantik yukka ega bo‘lgan personajlardan biridir. Uning “aqldan ozgan” sahnasidagi gul tarqatish epizodi adabiyotshunoslik, feminist nazariya, madaniy lingvistika va semiotika doirasida alohida e’tibor qozongan [Showalter, 1985; Thompson & Taylor, 2006]. Bu epizod Shekspir poetikasida tabiat obrazlarining qanday qilib lingvistik va madaniy kod sifatida ishlashini aniq ko‘rsatib beradi. Ofeliya tilga olgan yoki tasvirlagan har bir gul — arpabodiyon (fennel), binafsha (violet), romashka (daisy), yo‘lpechak (columbine), ruda (rue) va boshqalar — Elizabethan davridagi emblematik madaniyatda muayyan axloqiy, diniy va falsafiy tushunchalarni ifodalagan [Gerard 1597; Ellacombe 1878].

Elaine Showalterning klassik feministik tadqiqotida Ofeliya o‘z gullari orqali patriarxal tizimdagi ayolning jamiyatdagi o‘rni va uning ruhiy iztiroblarini ifodalovchi ramzlar tizimini yaratadi [Showalter 1985]. Showalterning fikricha, bu gullar ayollikning nozikligi va jamiyatdagi zulm bilan bog‘liq psixologik oqibatlarning badiiy tilga tarjimasidir. Ann Thompson esa bu gul ishoralarini Elizabethan davridagi emblematik kitoblar bilan bog‘lab, Ofeliya sahnasini “botanik til” orqali yaratilgan semiotik dramatik harakat sifatida talqin etadi [Thompson & Taylor 2006].

Bu gul ramzlari mifologik qatlam bilan ham bevosita bog‘langan. Masalan, binafsha gullar Prozerpina (Persefona) haqidagi yunon mifiga ishora qiladi: Prozerpina gul terayotgan paytda yer osti dunyosiga olib ketiladi, bu esa go‘zallikning o‘tkinchiligi va o‘limning doimiyligini bildiruvchi ramzdir [Hamilton, 1998]. Shu sababli, Ofeliyaning binafsha, ruda va romashkalarni tilga olishi ham qahramonning fojiaviy qismati, ham Shekspir dramaturgiyasidagi memento mori (o‘limni eslash) motivi bilan uzviy bog‘liq [Greenblatt 2010; Shapiro 2005].

G. Ellacombe (1878) Ofeliya tilga olgan har bir gulni xalqona e’tiqodlar va folklor bilan bog‘lab tahlil qiladi. Unga ko‘ra, ruda o‘z davrida tavba va poklanish ramzi bo‘lgan; arpabodiyon esa “xiyonat va hiyla” bilan bog‘langan [Ellacombe 1878: 22]. Utah Shakespeare Festival tomonidan ishlab chiqilgan “Ophelia’s Garden” loyihasi ham ushbu gullarning ma’nosini tushuntirib, tomoshabinlarga bu ramzlarning tarixi va dramatik ahamiyatini interaktiv tarzda yetkazadi [Utah Shakespeare Festival 2019]. Bu tadqiqotlar Shekspir dramaturgiyasida tabiat ramzlarining ko‘p qatlamli intertekstual tarmog‘ini ochib beradi.

Ofeliya sahnasi nafaqat badiiy-estetik, balki sotsiokultural hodisa sifatida ham qaraladi. Feminist olimlar bu obrazni “ayollik ovozi”ni lingvistik jihatdan tiklashning ilk adabiy namunalaridan biri sifatida baholaydilar [Showalter 1985; Neely 1985]. Shu bilan birga, semiotik tahlilchilar bu gul obrazlarini Elizabethan davridagi emblematik tasvirlar bilan bog‘laydi va Shekspir matnida “madaniy belgi” sifatida ishlashini ko‘rsatadi [Lotman 1990; Eco 1976].

Ofeliyaning gul tarqatish sahnasi dramatik strukturaning markaziy nuqtalaridan biri bo‘lib, undagi har bir ramz qahramonning ruhiy iztiroblarini bevosita tilga tarjima qiladi. Shu orqali Shekspir psixologik realizm va ramziy ifodaning mukammal uyg‘unligini yaratgan. Tadqiqotchilarning fikricha, bu sahna Shekspir dramaturgiyasida tabiat

ramzlari yordamida yaratilgan lingvopoetik “metatekst”ning yorqin namunasi hisoblanadi [Fowler 1986; Bath 1994].

Shekspir dramaturgiyasida tabiat va o‘simlik obrazlari faqat Hamlet bilan chegaralanmaydi; ular “Otello” va “Romeo va Julietta” tragediyalarida ham muhim semantik va poetik yukni o‘zida mujassam etadi. Bu ikki asar Shekspir poetikasidagi gul va o‘simlik obrazlarining dramatik vazifasini chuqurroq ko‘rsatib beradi, chunki ular sahna voqealarining ruhiy, falsafiy va estetik qatlamlarini boyitadi [Garber 2004; Bloom 1999].

“Otello”da tabiat ramzlari va Dezdemonaning “Tol qo‘shig‘i”. Otello tragediyasidagi eng ta’sirchan botanik ramz — Dezdemonaning “Tol qo‘shig‘i” (“Willow Song”)dir. Tol daraxti (willow) Elizabethan davrida ayollarning yetimlik, muhabbatdagi yo‘qotish va qayg‘u bilan bog‘liq ramz sifatida qaralgan [Neely, 1985]. Shekspir ushbu xalqona ramzni dramatik vosita sifatida qo‘llab, Dezdemonaning fojiali qismatini sahna boshlanishidayoq sezdiradi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, bu qo‘shiq va undagi ramzlar Shekspir dramaturgiyasida tabiat obrazlari orqali foreshadowing — kelajakdagi voqealarni badiiy tarzda oldindan bildiruvchi vosita — sifatida ishlashining yorqin namunasi [Shapiro 2005].

Garber (2004) o‘z izlanishlarida “Tol qo‘shig‘i” sahnasini Shekspirning musiqiy obrazlarni botanik ramzlar bilan uyg‘unlashtirgan kompozitsion uslubi sifatida baholaydi. Dezdemonaning qo‘shig‘i nafaqat uning ruhiy holatini ko‘rsatadi, balki jamiyatdagi ayollar mavqeyini, patriarxal kuchlarning ustuvorligini ham madaniy belgilar orqali ifodalaydi. Bu qo‘shiq sahnasi ayollarning ovozi va iztiroblari til orqali emas, balki tabiat obrazlari orqali badiiylashtirilganini ko‘rsatadi [Neely 1985; Showalter, 1985].

Shuningdek, Otellodagi “bog‘ va bog‘bon” metaforasi ham o‘ta diqqatga sazovor. Otello tomonidan ishlatilgan “Inson tanasi bog‘, iroda esa uning bog‘boni” degan metafora o‘sha davr falsafiy va diniy qarashlarini ifodalovchi lingvopoetik birlikdir [Spurgeon 1935]. Bu metafora insonning o‘z irodasi bilan taqdirini boshqarishi va shu orqali o‘zini “parvarish qilishi” mumkinligini anglatadi. Tadqiqotchilar fikricha, bu metafora Shekspirning tabiat obrazlarini inson ruhiyatining lingvistik modellariga aylantirish mahoratini ko‘rsatadi [Egan 2006; Lotman 1990].

“Romeo va Julietta”dagi o‘simliklar, dorivor o‘tlar va o‘lim motivi

“Romeo va Julietta” tragediyasida gul va dorivor o‘tlar obrazlari sevgi va o‘lim motivlarini uyg‘unlashtirishda muhim vosita sifatida ishlaydi. Lorens rohibining o‘simliklar haqidagi monologi Shekspirning botanika bo‘yicha chuqur bilimga egaligini va tabiat obrazlari orqali ikki qirrali ma’nolarni ifodalashga qodirligini ko‘rsatadi. U o‘simliklarning hayotni davolash va yo‘q qilish qudratini bir vaqtning o‘zida tilga olib, “ham shifobaxsh, ham zaharli” tabiatni dramatik ramz sifatida ishlatadi [Shapiro 2005; Thomas 1983].

Bu monolog tragediyaning asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lgan “sevgi va o‘limning ajralmasligi”ni lingvopoetik jihatdan ta’kidlaydi. Tadqiqotchilar fikricha, Shekspirning ushbu poetik strategiyasi tabiat obrazlarining

semantik imkoniyatlarini kengaytirgan va ularni asar kompozitsiyasining asosiy elementi sifatida ishlatgan [Bloom 1999; Greenblatt 2010]. Shu tariqa, rohibning dorivor o‘tlar haqidagi mulohazalari sahnada sodir bo‘ladigan fojia uchun semantik asos yaratadi va tabiat ramzlarini “tragediya mexanizmi”ning bir bo‘lagiga aylantiradi.

Tragediyada gul va dorivor o‘tlarning ramziy ahamiyati Romeo va Juliettaning sevgi hikoyasini yanada fojiaviy va universal qildi. Masalan, qahramonlarning sevgisini ifodalashda qo‘llangan atirgul obrazi ham go‘zallik, ham qisqa umr ramzi sifatida talqin etiladi. Shakespeare Birthplace Trust (2023) tadqiqotlarida qayd etilishicha, Renessans davrida atirgulning ramziy ma’nosi nafaqat romantik his-tuyg‘ular, balki go‘zallikning o‘tkinchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli, “Romeo va Julietta”dagi tabiat obrazlari nafaqat qahramonlarning individual kechinmalarini, balki universal falsafiy tushunchalarni ham lingvistik kodga aylantiradi [Bath 1994; Manning 2002]/

Lingvopoetik va semiotik talqinlar

“Otello”, “Romeo va Julietta” tragediyalaridagi o‘simlik obrazlari Shekspir poetikasida tabiat va inson ruhiyati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aks ettiradi. Bu obrazlar semiotik nazariya nuqtayi nazaridan madaniy belgilar tizimi sifatida qaraladi [Lotman 1990; Eco 1976]. Har bir gul va o‘t, hatto ularning turlari ham, Renessans davridagi emblematik madaniyat kontekstida o‘qilgan. Masalan, tol daraxti (willow) “ayollarning qayg‘usi”, atirgul esa “go‘zallikning o‘tkinchiligi” bilan bog‘liq ma’nolarni bildirgan [Seaton 2012]. Bu ramzlarning lingvopoetik kuchi shundaki, ular asar voqealarini oldindan sezdiruvchi (foreshadowing) vosita sifatida ishlaydi va tomoshabinlar bilan yozuvchi o‘rtasida madaniy aloqa o‘rnatadi [Garber 2004].

Zamonaviy ekokritik yondashuvlar ham ushbu obrazlarning ekologik va falsafiy ahamiyatini ochib beradi. Egan (2006) o‘z tadqiqotida Shakespeare bog‘lari va landshaftlarining dramaturgiyadagi rolini ekologik tahlil qilib, ularni inson va tabiat o‘rtasidagi doimiy aloqaning badiiy ifodasi sifatida ko‘rsatadi. Shu tarzda, Shekspir asarlarida botanik obrazlar nafaqat dramatik badiiy vosita, balki davr falsafasi va madaniyatini tushunishga yordam beruvchi tarixiy manba sifatida ham qaraladi [Thomas 1983; Harrison 1991].

Shekspir asarlaridagi gul va o‘simlik ramzlarini to‘liq tushunish uchun ularning Elizabethan davridagi madaniy va ilmiy kontekstini yoritish zarur. XVI asrning oxiri va XVII asr boshlarida Angliyada botanika, tabiatshunoslik va emblematika sohalarida yirik asarlar yaratilgan bo‘lib, ular Shekspir poetikasidagi tabiat obrazlarining ramziy yukini belgilashda muhim manba vazifasini bajargan [Lyte 1578; Gerard 1597; Harrison 1991]. Shu davr o‘quvchilari Shekspir matnidagi o‘simliklarga oid barcha ishoralarni “madaniy kod” sifatida oson tushungan, chunki tabiat obrazlari diniy, mifologik va xalqona ma’nolar bilan boyitilgan edi [Bath 1994].

John Gerardning Herbal, or General History of Plants (1597) asari Elizabethan davri botanikasi bo‘yicha eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlari bilan

bir qatorda ularning diniy va madaniy ramzlari ham batafsil keltirilgan [Gerard 1597]. Gerardning ishlarida rozmarin — “xotira va sadoqat”, binafsha — “erta o‘lim va nafislik”, yo‘lpechak (columbine) esa “xiyonat va beqarorlik” ramzi sifatida qayd etilgan. Shekspirning Hamlet tragediyasidagi Ofeliya tomonidan tarqatilgan gullar ro‘yxati Gerardning ushbu tavsiflari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanadi [Ellacombe 1878].

Bundan tashqari, Henry Lyte tomonidan 1578-yilda nashr qilingan Cruydeboeck tarjimasi ham Shekspir davridagi botanika bilimlarining asosiy manbalaridan biri bo‘lgan. Ushbu asarda o‘simliklarning xalqona nomlari va ularning mifologik ma’nolari ham berilgan, bu esa Shekspirning oddiy tomoshabinlar uchun tushunarli ramzlar yaratishida qo‘l kelgan [Lyte 1578].

Elizabethan davridagi emblematik madaniyat ham Shekspir poetikasining ramziy qatlamini tushunishda alohida ahamiyatga ega. Andrea Alciato tomonidan yozilgan Emblemata (1531) va boshqa emblematik to‘plamlar XVI asr Yevropasida keng tarqalgan bo‘lib, har bir o‘simlik va hayvon tasviri bilan birga falsafiy yoki diniy ma’nolar ham berilgan [Bath 1994; Manning 2002]. Bu an’ana Shekspir matnida o‘simlik obrazlarining “belgi” sifatida ishlashini tushuntiradi: gul va o‘simliklar faqat bezak emas, balki dramatik va falsafiy mazmunni chuqurlashtiruvchi lingvistik koddir [Lotman 1990; Eco 1976].

Emblematik madaniyat va teatr

Elizabethan davrida teatr asarlarini tushunishda emblematik madaniyat muhim vosita bo‘lgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘sha davr tomoshabinlari Shekspir sahnalarida qo‘llangan har bir ramzni “o‘qiy olgan”, chunki ular heraldika, emblematik kitoblar va bibliyaviy belgilar bilan yaxshi tanish edilar [Greenblatt 2010; Shapiro 2005]. Masalan, “Romeo va Julietta”dagi atirgul obrazi — go‘zallikning o‘tkinchiligi va sevgi motivi, “Otelloda”gi tol daraxti esa ayollarning qayg‘u va yetimlik ramzi sifatida qabul qilingan [Seaton 2012; Neely 1985].

Bu madaniyat o‘sha davr teatrida sahna belgilarini (stage symbolism) tushunishni ham osonlashtirgan. Shekspir dramaturgiyasidagi har bir gul, o‘t yoki daraxt tomoshabinlar bilan yozuvchi o‘rtasida madaniy aloqa o‘rnatgan “belgi” sifatida ishlagan. Shu sababli, Shekspir tragediyalarida tabiat obrazlari nafaqat estetika vositasi, balki ma’no yaratish jarayonining asosiy elementi bo‘lib xizmat qilgan [Manning 2002].

Botanika va xalq tabobati

Elizabethan davrida botanika va xalq tabobati bir-biriga uzviy bog‘langan edi. O‘simliklar haqidagi bilimlar nafaqat ilmiy manbalarda, balki xalq og‘zaki ijodida ham aks etgan. Shekspir asarlaridagi dorivor o‘tlar va ularning ramzlari (“Romeo va Julietta”dagi rohib Lorens monologi) Renessans davridagi tibbiyot va tabiatshunoslik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning ikki tomonlama (hayotni saqlash va yo‘q qilish) kuchi Shekspirning falsafiy qarashlarini ifodalash vositasi sifatida ishlaydi [Thomas 1983; Harrison 1991]. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, Shekspir o‘simlik obrazlarini sahnada shunchaki tasvir sifatida emas, balki davrning ilmiy va diniy qarashlarini aks ettiruvchi

semantik vosita sifatida qo‘llagan. Shu orqali dramaturg o‘z asarlarida tabiatni “metatekst” darajasida ishlatgan, ya’ni tabiat obrazlari asarning asosiy g‘oyasini sharhlovchi qo‘shimcha matnga aylangan [Bakhtin 1981; Fowler 1986].

Uilyam Shekspir dramaturgiyasida tabiat obrazlari, xususan gul va o‘simliklar, lingvopoetik tizimning asosiy komponentlaridan biri sifatida qaraladi. Lingvopoetika matndagi til birliklarining estetik va semantik funksiyasini o‘rganuvchi soha sifatida [Bakhtin 1981; Fowler 1986], Shekspir poetikasida gul va o‘simlik obrazlari orqali shakllangan ko‘p qatlamli semantik maydonni tahlil qilish imkonini beradi. Shekspirning ramziy obrazlari emblematik madaniyat, xalq folklori, mifologiya va diniy qarashlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular matnning semantik strukturasi va dramatik voqealar rivojida ma’no tashuvchi “kod” sifatida ishlaydi [Lotman 1990; Eco1976].

Lingvopoetik funksiyalar

Lingvopoetik jihatdan Shekspir asarlarida tabiat obrazlari uch asosiy funksiyani bajaradi:

- Dramatik foreshadowing — kelajakdagi voqealarni oldindan sezdirish. Masalan, Otellodagi “Tol qo‘shig‘i” Dezdemonaning fojiaviy qismatini ramziy darajada bildiradi [Neely, 1985; Garber, 2004].
- Psixologik tasvir — qahramonlarning ruhiy iztiroblari va kechinmalarini ochib berish. “Hamlet”dagi Ofeliya gullari uning ruhiy tushkunligi va patriarxal jamiyatdagi ayol qismatini ko‘rsatadi [Showalter, 1985; Thompson & Taylor, 2006].
- Falsafiy-madaniy konseptlar — tabiat obrazlari hayot va o‘lim, go‘zallik va beqarorlik, sevgi va fojia kabi qarama-qarshi tushunchalarni birlashtiruvchi falsafiy metaforaga aylanadi (Romeo va Juliettadagi rohib Lorens monologi) [Shapiro 2005; Thomas 1983].

Bu funksiyalar Shekspir matnidagi har bir gul va o‘simlik obrazini oddiy dekorativ element emas, balki semantik markaz sifatida ko‘rsatadi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, Shekspirning poetik tilida tabiat obrazlari “ko‘p qatlamli lingvistik birliklar” bo‘lib, ular matn ichidagi metatekst sifatida ham ishlaydi, ya’ni asarning asosiy g‘oyalarini chuqurroq talqin qilishga xizmat qiladi [Bakhtin1981; Fowler 1986].

Semiotik funksiyalar

Semiotika nuqtayi nazaridan Shekspir asarlaridagi botanika obrazlari madaniy belgilarning murakkab tarmog‘ini tashkil etadi. Har bir o‘simlik o‘z davridagi emblematik ma’noga ega bo‘lgan, bu esa tomoshabinlar va o‘quvchilar uchun matnni “kodlash”ni osonlashtirgan [Bath 1994; Manning 2002]. Masalan:

Tol daraxti (willow) — ayollar iztirobi va muhabbatda yo‘qotish ramzi [Neely 1985];

Rozmarin — xotira va sadoqat belgisi [Gerard 1597];

Binafsha — nafislik va erta o‘lim ramzi [Hamilton 1998];

Yo‘lpechak (columbine) — xiyonat va beqarorlik belgisi [Ellacombe 1878].

Lotman (1990) va Eco (1976) ta'kidlaganidek, bunday belgilar tizimi o‘quvchi va tomoshabin bilan yozuvchi o‘rtasida semiotik muloqotni ta'minlaydi. Shekspir matni shu tarzda nafaqat dramatik asar, balki davr madaniyati, axloqiy qarashlari va mifologiyasi haqidagi kodlangan bilimlar majmuasi sifatida ham qaraladi.

Lingvistik va dramatik struktura uyg‘unligi

Shekspir poetikasida botanika obrazlari matnning dramatik kompozitsiyasi bilan uyg‘unlashadi. Masalan, "Romeo va Julietta"dagi rohib Lorensning dorivor o‘tlar haqidagi monologi nafaqat fabula uchun zarur element, balki sahnada fojiani oldindan bildiruvchi semantik signaldir [Shapiro, 2005]. Bu Shekspirning matn qurilishidagi metaforik ko‘p qatlamlilik va semiotik chuqurlikni ko‘rsatadi [Greenblatt, 2010; Egan, 2006].

Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, Shekspirning lingvopoetik strategiyasi tabiat obrazlarini ikki asosiy maqsadda ishlatadi:

- Estetik maqsad — obrazlar badiiy go‘zallikni yaratadi va dramatik effektni kuchaytiradi;
- Epistemologik maqsad — ular davr falsafasini, axloqiy qadriyatlarni va madaniyatni "lingvistik belgilar tizimi" sifatida aks ettiradi [Thomas 1983; Harrison 1991].

So‘nggi yillarda Shekspir asarlaridagi botanika obrazlari ekokritika, madaniyatshunoslik va lingvokulturologiya yondashuvlari asosida ham tahlil qilinmoqda. Egan (2006) tabiat tasvirini ekologik paradigma bilan bog‘lab, Shekspir dramaturgiyasida inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatgan. Greenblatt (2010) esa Shekspir asarlaridagi tabiat obrazlarini "davr dunyoqarashining lingvistik oynasi" sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, raqamli gumanitar tadqiqotlar Shekspir asarlaridagi barcha botanika obrazlarini kataloglash orqali ularning madaniy va semantik tizimini aniqroq ochib berishga yordam bermoqda [Shakespeare Birthplace Trust 2023].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — Uilyam Shekspirning tragediyalarida gul va o‘simlik obrazlari orqali o‘lim va qayg‘u motivlarining badiiy ifodasini lingvopoetik jihatdan tahlil qilishdir. Shu bois ishda solishtirma (qiyosiy) tahlil metodidan keng foydalanildi [Fowler 1986; Lotman 1990]. Bu metod Shekspir asarlaridagi ramzlarni bir-biri bilan, shuningdek boshqa davr va madaniyatdagi badiiy matnlardagi o‘xshash motivlar bilan qiyoslash imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida Shekspirning uchta mashhur tragediyasi — "Hamlet", "Otello, "Romeo va Julietta" — markaziy material sifatida tanlandi, chunki ularda gul va o‘simlik obrazlari psixologik va dramatik strukturaning ajralmas qismi sifatida o‘ta muhim semantik yukka ega [Spurgeon 1935; Garber 2004].

Avvalo, har bir tragediyada uchraydigan asosiy botanika motivlari aniqlanib, individual tahlil qilindi. Masalan, "Hamlet"dagi Ofeliyaning aqldan ozgan holatda atrofdagilarga gul tarqatish sahnasi [Showalter 1985; Thompson & Taylor 2006], Otellodagi Dezdemonaning "Tol qo‘shig‘i" [Neely 1985], "Romeo va Julietta"dagi to‘y va dafn marosimlari hamda rohib Lorens monologidagi dorivor o‘simliklar tasviri [Shapiro 2005;

Thomas 1983] alohida o‘rganildi. Ushbu epizodlarning semantik, madaniy va psixologik qatlamlari kontekstual tahlil asosida ochib berildi. Keyingi bosqichda ushbu topilmalar o‘zaro qiyoslandi va gul obrazlarining o‘xshash hamda farqli jihatlari aniqlanib, ularning har bir asar dramaturgiyasidagi funksiyasi tushuntirildi [Dowden 1875; Bloom 1999].

Tadqiqot manbalari sifatida Shekspir asarlarining nufuzli ilmiy nashrlari [Thompson & Taylor 2006], izohli matnlar va Oxford University Press hamda Arden Shakespeare seriyasidagi ilmiy sharhli editsiyalardan foydalanildi (Shakespeare, various editions). Bu yondashuv lingvistik aniqlik va tarixiy kontekstni saqlashga yordam berdi. Shuningdek, gul va o‘simliklarning semantik yukini to‘liq ochib berish uchun Elizabethan davridagi botanik adabiyotlar, xususan John Gerardning The Herbal or General History of Plants (1597) hamda Henry Lyte tarjima qilgan Cruydeboeck (1578) kitoblari asosiy qo‘llanma sifatida tanlandi. Ushbu manbalar orqali Shekspir zamondoshlari uchun o‘simliklarning qanday ramziy ma’no kasb etgani aniqlandi [Gerard 1597; Lyte, 1578; Ellacombe 1878].

Tadqiqot metodologiyasi doirasida etnobotanika va folklor manbalaridan ham foydalanildi. Ofeliya tilga olgan gullar — arpabodiyon (fennel), binafsha (violet), romashka (daisy) va yo‘lpechak (columbine) kabi o‘simliklarning xalq og‘zaki ijodidagi ramziy ma’nolari va mifologik ildizlari ham o‘rganildi [Hamilton 1998; Utah Shakespeare Festival 2019]. Masalan, binafsha gullar Prozerpina haqidagi yunon mifologiyasi bilan bog‘lanib, beqarorlik va erta o‘lim ramziga aylangan [Hamilton 1998; Greenblatt 2010]. Shu orqali tahlil jarayonida ramzlarning tarixiy semantik konnotatsiyasi va ularning dramaturgiya bilan uzviy bog‘liqligi ochib berildi.

